

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil).– 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

TAKRORIY EKINNI OCH TUSLI BO'Z TUPROQLARINING AGROKIMYOVIY XOSSALARIGA TA'SIRI

Isaqov Validjan Yunusovich

Qo'qon davlat universiteti

Iminchayev Rahmatjon Ahmadovich

Farg'ona davlat universiteti tayanch-doktoranti

Annotatsiya. Maqolada och bo'z tuproqlar sharoitida mosh o'simligiga turli mineral o'g'itlar me'yori qo'llanilishi hisobiga tuproqni agrokimyoviy ko'rsatgichlariga ijobiy ta'siri kuzatilib, tuproq tarkibidagi ammoniyli N-NH₄ ko'rinishidagi azot miqdori yaxshilanganligi kuzatildi. Nazorat ya'ni kuzgi bu'g'doy ekilgan variantga nisbatan xaydov qatlamida ammoniyli azot miqdori N-NH₄ 4,8-4,9 mg/kg ko'p bo'lganligi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: takroriy ekin, mosh, mineral o'g'it, azot.

THE EFFECT OF DOUBLE CROPPING ON THE AGROCHEMICAL PROPERTIES OF LIGHT-COLORED SIEROZEM SOILS

Isaqov Validjan Yunusovich

Kokand State University

Iminchayev Rahmatjon Ahmadovich

PhD Candidate, Fergana State University

Annotation. The article shows that the application of various mineral fertilizers to mung bean plants on light gray soils has a positive effect on soil agrochemical parameters, and the content of nitrogen in the form of ammonium N-NH₄ in the soil has improved. It is stated that the content of ammonium nitrogen N-NH₄ in the tillage layer was 4.8-4.9 mg/kg higher than in the control, i.e., the variant planted with winter wheat.

Keywords: repeated cropping, mung bean, mineral fertilizer, nitrogen.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ycdif-y2026v2i17/n03>

Kirish. Ma'lumki, tuproq tarkibidagi azotning miqdori ko'proq tuproqning yuqori molekulyar organik modda gumusga bog'liq bo'lib, respublikamizning sug'oriladigan tuproqlarida quyidagicha uchraydi: och tusli bo'z tuproq haydalma qatlamida 0,040-0,070, eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda 0,060-0,120, azaldan sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlarda 0,100-0,140 va to'q tusli bo'z tuproqlarda 0,20-0,25 % miqdorda bo'ladi (I.Boboxo'jaev, P.Uzoqov, 1995) [1].

Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy tadqiqot instituti olimlari tadqiqot ishlari natijalariga ko'ra Sirdaryo va Jizzax viloyati tuproqlarida gumus va azot o'rtasida korrelyatsion bog'liqlik borligini ko'rish mumkin. Ushbu hududdagi tuproqlar tarkibidagi umumiy azot miqdori tuproq gumusi miqdori va uning o'zgarishi bilan bir xil xarakterga ega. Sababi ma'lumki, azotning 99 foiz gumus moddalar tarkibida uchraydi.

Foydalanilgan uslubiyotlar: Tajribalar "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" O'zPITI (2007), agrofizikaviy tahlillarda "Методы агрохимических, агрофизических и

микробиологических исследований в поливных хлопковых районах” (1963) uslubiy qo'llanmalaridan foydalanildi.

Natija; Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olish eng avvalo tuproq tarkibidagi harakatchan oziq elementlarining miqdoriga bog'liq. Ekin maydonlari tuprog'ining tarkibidagi bunday harakatchan oziq moddalarning yig'indisi, tuproq unumdorligini belgilovchi ko'rsatkichlar qatoriga kiradi. Tuproqning oziq rejimi, asosan, harakatchan oziq moddalar miqdori va bu miqdorning dinamikasi bilan baholanadi. Chunki, harakatchan oziq moddalar o'simlik oziqlanishida bevosita ishtirok etadi va o'simlikning mineral oziqlanishini belgilaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz ham o'z tajribamizda och tusli bo'z tuproqlar tarkibidagi ammoniy va nitrat shakldagi azot miqdorlariga turli me'yordagi o'g'itlar takroriy ekinlarga qo'llashning ta'sirini o'rganib chiqildi. Izlanishlarda ekinlarning tuproq tarkibidagi harakatchan oziq elementlarga ta'siri 5 iyuldan, ya'ni mosh o'simliklari ekilganidan boshlab 20-noyabrgacha har 15 kunda o'rganib borildi (1-jadval). Jadval ma'lumotlariga ko'ra, o'g'itlarni qo'llash tuproq tarkibidagi ammoniy shakldagi

1-jadval

Turli o'g'it me'yorda ekilgan takroriy ekin tuproqdagi ammoniy shaklidagi azot (NH_4) miqdoriga ta'siri, mg/kg tuproqda (2022 y)

	Ekin turi	Yillik me'yor, kg/ga			Analiz muddatlari									
		N	P_2O_5	K_2O	05.07	20.07	05.08	20.08	05.09	20.09	05.10	20.10	05.11	20.11
	Nazorat (Kuzgi bug'doyni joyi)	0	0	0	18,5	19,3	19,5	20,6	21,4	22,1	23,6	23,5	15,5	14,3
	Mosh	0	60	40	18,4	19,8	19,7	20,9	21,8	22,5	23,9	24,2	19,3	17,2
		20	80	60	18,5	21,8	25,6	32,8	35,8	38,8	39,4	40,5	27,5	18,4
		20	40	20	18,3	27,4	33,4	35,0	40,2	42,5	44,0	46,2	30,2	19,1
		40	60	40	18,0	24,5	30,6	33,8	38,7	40,8	42,1	44,0	28,2	18,7

azot miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ya'ni o'g'it qo'llanilmagan nazorat variantida tuproq tarkibidagi ammoniy shakldagi azot miqdori 1 kg tuproqda 5 iyulda 18,5 mg bo'lgan bo'lsa, 20-iyulda 19,3 mg; 5- avgustda 19,5; 20- avgustda 20,6; 5-sentyabrda 21,0; 20-sentyabrda 22,0; 5- oktyabrda 23,0; 20-oktyabrda 23,5; 5-noyabrda 15,5; esa 20-noyabrda 14,3 mg ekanligi kuzatildi. Bu qonuniyat azotli o'g'it qo'llanilmagan faqat ($P_{60} K_{40}$) kg/ga qo'llanilgan ikkinchi variantimizda ham saqlanib qolganligi kuzatildi.

Yuqorida ta'kidlanganidek dala tajribasida mineral o'g'itlarni qo'llash tuproq tarkibidagi ammoniy shakldagi azot miqdoriga sezilarli ravishda ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan fosforli va kaliyli o'g'itlar va azotli o'g'itlarni gektariga $N_{20}P_{80} K_{60}$ kg/ga me'yorida qo'llanilgan (3) variantda ammoniy shakldagi azot ($N-NH_4$) miqdorining oshishi kuzatilib, 5-iyulda 18,5; 20-iyulda 21,8 mg; 5- avgustda 25,6; 20- avgustda 32,8; 5-sentyabrda 35,8; 20-sentyabrda 38,8; 5-oktyabrda 39,4; 20-oktyabrda 40,5; 5-noyabrda 27,5; esa 20-noyabrda 18,4 mg ni tashkil etdi.

Olib borilgan tadqiqot ishlarida tuproq tarkibidagi ammoniy shakldagi azot miqdori nazorat ya'ni o'g'it qo'llanilmagan variantlarga nisbatan o'g'it qo'llanilgan boshqa variantlarda ham kuzatildi. Azotli o'g'it me'yorini oshirish natijasida tuproq tarkibidagi ammoniy shakldagi azot miqdori yanada oshdi. Olib borilgan dala tajribasi natijalariga ko'ra o'rganilgan barcha variantlarda ammoniyli azotning oshishi 20-noyabrgacha kuzatildi. So'ngra uning miqdori kamayib bordi. Masalan, gektariga $N_{20}P_{40} K_{20}$ kg me'yorida qo'llanilgan (4) variantda ushbu sanada ammoniy shakldagi azotning miqdori 5-iyulda 18,3; 20-iyulda 27,4 mg; 5- avgustda 33,4; 20- avgustda 35,0; 5-sentyabrda 40,2; 20-sentyabrda 42,5; 5-oktyabrda 44,0; 20-oktyabrda 46,2; 5-noyabrda 30,2; esa 20-noyabrda 19,1 mg ni ekanligi kuzatildi.

$N_{40}P_{60} K_{40}$ kg me'yorida qo'llanilgan (5) variantda ushbu sanada ammoniy shakldagi azotning miqdori 5-iyulda 18,0; 20-iyulda 24,5 mg; 5- avgustda 30,6; 20-avgustda 33,8; 5-sentyabrda 38,7; 20-sentyabrda 40,8; 5-oktyabrda 42,1; 20-oktyabrda 44,0; 5-noyabrda 28,2; esa 20-noyabrda 18,7 mg ni tashkil qilganligi aniqlandi.

Xulosa

1. Xulosa qilib aytganda takroriy ekin sifatida yetishtirilgan mosh o'simligiga turli o'g'it me'yorlari qo'llanishi natijasida tuproq tarkibidagi oziqa moddalarga ijobiy tasiri nazorat variantga nisbatan maqbul (4) variantimizda mavsum oxirida xaydov qatlamida $N-NH_4$ 4,8-4,9 mg/kg ko'p bo'lganligi kuzatildi.

2. Tuproqda yetishtirilgan takroriy ekini mosh tuproqning agrokimyoviy xossalari yaxshilanib tuproqda o'simlik uchun suv, havo va oziq rejimining qulay bo'lishi aniqlandi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Boboxo'jaev I., Uzoqov P -Samarqand; Darslik, 1995. -B.350.
2. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. – Toshkent, 2007. B.144-146.
3. Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах. Ташкент, «Меҳнат» 1963. -С. 16-133.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil). – 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.